

“TBC Plus” mahsulotidan foydalanish to‘g‘risidagi ommaviy oferta

2025-yil “30” Oktabrdan boshlab amal qiladi.

Ushbu hujjat quyidagi manzilda ro‘yxatdan o‘tgan: (STIR 207318613) O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi 10B uy, email: contact@tbcbank.uz, telefon: 1150 (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi), “TBC UZ” ilovasida identifikatsiyalangan muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar - bank kartalarining saqlovchilariga (bundan buyon matnda “Foydalanuvchi” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining 2-qismiga muvofiq “TBC UZ” ilovasi doirasida “TBC Plus” mahsulotidan foydalanish to‘g‘risida shartnoma tuzish (bundan buyon matnda “Shartnoma” yoki “Oferta” deb yuritiladi) uchun “TBC Bank” ATBning rasmiy taklifi (ommaviy oferta) hisoblanadi.

Foydalanuvchining ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni bajarishi uning quyida keltirilgan shartlarga to‘liq va so‘zsiz roziligini anglatadi (*Oferta aksepti*). Oferta akseptlangan vaqtdan boshlab Shartnoma muddatsiz tuzilgan hisoblanadi. Shartnomada to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilmagan barcha holatlarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ish muomalasi odatlariga amal qiladilar.

“TBC Plus” mahsulotidan foydalanishni boshlashdan oldin ushbu Oferta matni bilan to‘liq tanishib chiqish zarur. Agar butun Oferta shartlariga yoki uning biror qismiga rozi bo‘lmasangiz, “TBC Plus” mahsulotidan foydalanmasligingiz kerak.

1. Atama va ta’riflar

- 1.1. “TBC Plus” mahsuloti** (*bundan buyon matnda “Obuna” deb yuritiladi*) - Bank tomonidan Foydalanuvchilarga taqdim etiladigan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bank va maslahat xizmatlari majmuasi (*bundan buyon matnda “Xizmatlar” deb yuritiladi*) va Hamkorlar bilan hamkorlik qilishda taqdim etiladigan qo‘shimcha imtiyozlar (*bundan buyon matnda “Imtiyozlar” deb yuritiladi*). Obuna doirasida mavjud Xizmatlar va Imtiyozlar birgalikda “Xizmatlar” deb ataladi.
- 1.2. Foydalanuvchi** – “TBC UZ” ilovasida identifikatsiyalangan, “TBC UZ” ilovasining mavjud funktsionalligi doirasida yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshiruvchi va ushbu Ofertani faollashtirgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.
- 1.3. Karta** - O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi bank tomonidan chiqarilgan va “TBC UZ” ilovasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan virtual va xorijiy valyutadagi kartani o‘z ichiga olgan Foydalanuvchining to‘lov kartasi.
- 1.4. “TBC UZ” ilovasi** (*bundan keyin “Ilova” deb yuritiladi*) - mobil yoki veb-ilova ko‘rinishidagi dasturiy mahsulot bo‘lib, u Foydalanuvchiga Bankning funksional imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi.
- 1.5. Hamkor** - yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lib, ular bilan Bank Foydalanuvchilarga Obuna doirasida qo‘shimcha imtiyozlar berish maqsadida hamkorlik qiladi.
- 1.6. Davr** - Obuna faollashtirilgan sanadan boshlab 30 kalendar kun.

2. Akseptlash tartibi

- 2.1.** Ushbu ofertani qabul qilish, shuningdek, Obunani taqdim etish shartlariga rozilik berish Foydalanuvchi tomonidan Ilovaning tegishli bo'limida Obunani faollashtirish orqali amalga oshiriladi.
- 2.2.** Obunani ulash orqali Foydalanuvchi "PFM" tahliliy xizmatini taqdim etish avtomat ravishda to'xtatilishini tasdiqlaydi va bunga rozilik bildiradi. PFMdan foydalanganlik uchun to'langan summa qaytarilmaydi va xizmatning amal qilish muddati u to'xtatilgan vaqtda uzaytirilmaydi.
- 2.3.** Ushbu Shartnomani tuzish orqali Foydalanuvchi Bankka, shu jumladan uning affilangan shaxslariga, Bank bilan yagona kompaniyalar guruhiga kiruvchi shaxslarga va Bank tomonidan vakolat berilgan boshqa tashkilotlarga O'zbekiston Respublikasi hududida ham, undan tashqarida ham shaxsiy ma'lumotlarini Ommaviy ofertada (Ilovadan foydalanish to'g'risida) nazarda tutilgan tartibda qayta ishlashga rozilik beradi.
- 2.4.** Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga roziligi muddatsiz bo'lib, shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik Foydalanuvchi tomonidan istalgan vaqtda contact@tbcbank.uz elektron pochta manziliga yozma ariza berish orqali qaytarib olinishi mumkin. Shubha va kelishmovchiliklarning oldini olish maqsadida, Tomonlar shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga berilgan rozilikni bekor qilish Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlamasdan amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan Ilovaning texnik funktsionalligini to'xtatib turish/cheklashga bo'lgan xohish-irodasi ekanligini tushunadilar.
- 2.5.** Obunani Oferta, xususan, tegishli Ilovada nazarda tutilgan tartibda ulash Foydalanuvchining Ofertaga qo'shilish shartlarida hech qanday istisno va/yoki cheklovlersiz barcha shartlarni to'liq va so'zsiz qabul qilishini anglatadi.

3. Tasdiqlash va kafolatlar

- 3.1.** Bank Foydalanuvchiga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rishni kafolatlaydi.
- 3.2.** Bank Shartnoma tuzish va u bilan belgilangan majburiyatlarni bajarish uchun barcha huquq va vakolatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi, Shartnomaning tuzilishi uchinchi shaxslar oldidagi hech qanday majburiyat shartlarini buzmaydi.
- 3.3.** Foydalanuvchi ushbu Ofertani qabul qilish orqali quyidagilarni tasdiqlaydi:
 - ixtiyoriy ravishda Shartnoma tuzadi, Oferta (Shartnoma) shartlari, jumladan, ulanish shartlari, to'ldirish, to'lov tartibi, Obuna narxi, Hamkorlar va Xizmatlar haqidagi ma'lumotlar, ularni Hamkorlar tomonidan Obunada taqdim etish shartlari bilan to'liq tanishib chiqadi va rozi bo'ladi;
 - Shartnoma predmetini, Shartnomani tuzish va bajarishga nisbatan o'z harakatlarining ahamiyati va oqibatlarini tushunadi;
 - ushbu bitimni mustaqil ravishda va zarur hollarda Shartnomada nazarda tutilgan bitimlarni tuzish (Shartnoma tuzish) huquqiga ega;

- Kartaning egasi (saqlovchisi) hisoblanadi va Obunani to'lash uchun zarur bo'lgan barcha rekvizitlarni manbaga ongli ravishda, to'g'ri va to'liq kiritadi (zarur hollarda).

3.4. Shartnoma nomuayyan muddatga tuziladi.

4. Shartnoma predmeti

- 4.1.** Obunaga kiruvchi Bank xizmatlari ro'yxati va ma'lumotlari quyidagi havola orqali joylashtirilgan: <https://tbcbank.uz/uz/documents/>. Ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri Ilovaga joylashtirilishi ham mumkin. Ilovada va/yoki Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Xizmatlar ro'yxati va ma'lumotlari ushbu Ofertaning ajralmas qismidir.
- 4.2.** Obuna doirasida mavjud imtiyozlar quyidagi havola orqali joylashtirilgan: <https://tbcbank.uz/uz/documents/> va/yoki Ilovada. Ko'rsatilgan Imtiyozlarni taqdim etish Hamkorlarning manbalari, imkoniyatlari va yechimlariga bog'liq. Bank Foydalanuvchilarning ko'rsatilgan Imtiyozlardan doimiy foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha oqilona choralarni ko'radi. Shu bilan birga, agar bu Bank hamkorlarining harakatlari yoki harakatsizligi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, Bank Imtiyozlarni to'liq yoki qisman to'xtatib turish, to'xtatish yoki noto'g'ri taqdim etish uchun javobgar emas.
- 4.3.** Obuna narxi Ilovaning interfeysida, tegishli bo'limda ko'rsatiladi.
- 4.4.** Obuna davrida Foydalanuvchi tomonidan olinmagan Xizmatlar, shuningdek, ularning alohida xususiyatlari, ta'riflari, hajmlari va boshqalar, agar tegishli Xizmatni taqdim etish shartlarida boshqacha tartib to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan bo'lsa, jamlanmaydi va yangi Obuna davriga o'tkazilmaydi. Ushbu Ofertada nazarda tutilgan asoslarga ko'ra Obuna to'xtatilgan taqdirda, bunday Obuna bo'yicha Xizmatlarga kirish to'xtatiladi va Foydalanuvchi tomonidan olinmagan Xizmatlar yoki ularning alohida xususiyatlari, ta'riflari, hajmlari va boshqalar umumlashtirilmaydi va Obunaning keyingi davrlariga o'tkazilmaydi.
- 4.5.** Obuna iOS, Android platformalarida mavjud bo'lgan Ilova doirasida ishlaydi.
- 4.6.** Foydalanuvchi Obuna muddatsiz ekanligini va agar ushbu Ofertada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, avtomat ravishda uzaytirilishini tushunadi va bunga rozilik bildiradi. Obuna doirasida Xizmatlarga kirish u faolsizlantirilguniga qadar taqdim etiladi.
- 4.7.** Foydalanuvchi ushbu Ofertada tartibga solinmagan ayrim Xizmatlarni taqdim etish tartibi va shartlari tegishli ommaviy ofertalar, shu jumladan Ilovada Bank tomonidan joylashtirilgan ofertalar bilan belgilanishini tan oladi va bunga rozilik bildiradi.

5. Narxi va to'lov tartibi

- 5.1.** Obuna narxi Ilova interfeysida keltirilgan.
- 5.2.** Bank Foydalanuvchini xabardor qilgan holda, tegishli ma'lumotlarni Ilova interfeysiga va (yoki) Foydalanuvchining shaxsiy kabinetiga joylashtirish orqali Obuna narxini bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega. Yangi Obuna narxi bildirishnomada ko'rsatilgan sanadan boshlab amal qiladi. Yangi Obuna narxiga rozi bo'lmagan taqdirda, Foydalanuvchi undan voz kechish huquqiga ega. Obunani keyingi muddatga davom ettirish Foydalanuvchining yangi Narxga roziligini bildiradi.

- 5.3.** Obuna narxi to'lovni amalga oshirish vaqtida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan miqdorda qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladi. Obuna narxi kredit va boshqa tashkilotlarning to'lovni amalga oshirish uchun vositachilik haqini o'z ichiga olmaydi.
- 5.4.** Foydalanuvchi tegishli davr uchun Obuna narxi Foydalanuvchining Obuna bo'yicha Xizmatlardan amalda foydalanishiga bog'liq emasligini tushunadi va bunga rozilik bildiradi hamda agar ushbu Ofertada boshqacha tartib to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan bo'lsa, o'zgartirilmaydi.
- 5.5.** Mablag'larni yechib olish Obuna faollashtirilganda Ilovada ro'yxatdan o'tkazilgan Foydalanuvchi kartasidan avtomat ravishda amalga oshiriladi. Keyingi hisobdan chiqarish, kalendar oyidagi kunlar sonidan qat'i nazar, Obuna to'langan sanadan boshlab har 30 (o'ttiz) kalendar kunda avtomat ravishda amalga oshiriladi.
- 5.6.** Foydalanuvchi to'langan Davr uchun mablag'lar qaytarilmasligini tasdiqlaydi va bunga rozilik bildiradi.
- 5.7.** Obuna Foydalanuvchining Ilovadagi akkauntiga birlashtirilgan. Hisobdan chiqarish birinchi navbatda "asosiy" deb belgilangan Foydalanuvchining kartasidan amalga oshiriladi. "Asosiy" kartada mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda, hisobdan chiqarish uning akkauntida ro'yxatdan o'tgan boshqa har qanday kartadan, shu jumladan foydalanuvchining virtual kartalaridan hamda balansi hisobdan chiqarishga imkon beradigan xorijiy valyutadagi kartalardan amalga oshiriladi.
- 5.8.** Mablag'larni hisobdan chiqarish faqat hisobdan chiqarilayotgan Karta balansi Obuna narxiga teng yoki undan yuqori bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi.
- 5.9.** Obuna qiymatini hisobdan chiqarish uchun Foydalanuvchining Kartalarida pul mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda (har bir Karta balansi Obuna qiymatidan kamroq summani tashkil etsa), Obunaga kirish Obuna qiymati muvaffaqiyatli hisobdan chiqarilgunga qadar to'xtatiladi. Mablag'larni yechib olish 27 kun ichida amalga oshiriladi:
- 5.9.1.** Agar 27 kun ichida Foydalanuvchining kartalaridagi pul mablag'lari Obuna qiymatini hisobdan chiqarish uchun yetarli miqdorga to'ldirilmasa, ushbu Shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.
- 5.9.2.** Foydalanuvchi kartasi Obuna to'xtatilgan vaqtdan boshlab 27 kun ichida zarur summagacha to'ldirilgan taqdirda, Obuna qiymati qayta hisobdan chiqariladi. Hisobdan chiqarish Obuna qayta faollashtirilgan sanadan boshlab amalga oshiriladi va Foydalanuvchi kartasida yetarli mablag' yo'qligi sababli to'xtatilgan davrni o'z ichiga olmaydi. Barcha taqdim etilgan Xizmatlar, shu jumladan Bank hamkorlarining imtiyozlari Obuna to'xtatilgan davrda to'xtatiladi va faqat Obuna to'lovi muvaffaqiyatli yechib olingandan keyingina qayta tiklanadi.
- 5.10.** Bankning ixtiyoriga ko'ra, Foydalanuvchiga funksional imkoniyatlari va Xizmatlar ro'yxati cheklangan Obuna bepul sinov muddati taqdim etilishi mumkin. Bepul sinov muddati haqidagi axborot Ilova interfeysida taqdim etiladi. Obunaning bepul sinov muddati Ilova interfeysida ko'rsatilgan cheklavlarni hisobga olgan holda ushbu Ofertaning qoidalari bilan tartibga solinadi. Bepul sinov muddati tugagach, Obuna avtomat ravishda uzaytiriladi va "standart" deb belgilanadi hamda Obuna to'lovi ushbu bo'lim shartlariga muvofiq

hisobdan chiqarish sanasida amal qiladigan miqdorda amalga oshiriladi, Foydalanuvchi bepul sinov muddati tugashidan oldin Obunani rad etgan holatlar bundan mustasno.

6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

6.1. Bank quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

6.1.1. Foydalanuvchining Obunaga uzluksiz kirishini ta'minlash;

6.1.2. Obunani taqdim etish jarayonida Bankka ma'lum bo'lgan Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarining saqlanishini ta'minlash;

6.1.3. Xizmatlar ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritilganligi to'g'risida Foydalanuvchini push-bildirishnomalar orqali xabardor qilish.

6.2. Foydalanuvchi quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

6.2.1. ushbu Oferta talablarini bajarish;

6.2.2. Axborot xavfsizligini mustaqil ravishda ta'minlash hamda Obunani olish amalga oshiriladigan qurilma va Ilovaning operatsion tizimini eng so'nggi nusxasigacha yangilash;

6.2.3. Obunadan noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik;

6.2.4. uchinchi shaxslar tomonidan Ilova yoki Xizmatlardan noqonuniy foydalanish faktlari yoki shubhalari haqida, shu jumladan, Ilova yoki Obuna ulangan mobil telefon raqami yo'qolganda, o'g'irlanganda yoki boshqacha tarzda yo'qolganda Bankni darhol xabardor qilish;

6.2.5. Bank tomonidan Ilova interfeysida e'lon qilingan Obuna foydalanuvchilari uchun xabarlarini mustaqil ravishda kuzatib borish;

6.2.6. o'zining shaxsiy ma'lumotlarini va/yoki Obunaga kirish imkonini beruvchi boshqa rekvizitlar va ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga bermaslik;

6.2.7. Uchinchi tomonlarning Ilova yoki ayrim Xizmatlarni noqonuniy egallab olishi va foydalanishiga yo'l qo'ymaydigan zarur tashkiliy va texnik choralarni ko'rish;

6.2.8. Obunada mavjud Xizmatlar ro'yxatini har oyda kamida bir marta tekshirish.

6.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:

6.3.1. ushbu Ofertaning 10-bo'limida nazarda tutilgan tartibda ushbu Ofertaga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish;

6.3.2. Foydalanuvchi ushbu Ofertaning biror bandini buzgan taqdirda, Obunaga kirishni cheklash;

6.3.3. Foydalanuvchilarga qo'shimcha afzalliklarni taqdim etish maqsadida hamkorlar bilan hamkorlik qilish. Agar bunday Imtiyozlarni taqdim etish Hamkorlar tomonidan belgilangan shartlarga, shu jumladan ommaviy takliflarga rozilikni talab qilsa, Bank Mijozdan bunday rozilikni tasdiqlashni so'rashga haqli;

6.3.4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshirish.

6.4. Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- 6.4.1.** Xizmat doirasida mavjud bo'lgan Xizmatlar va Foydalanish imtiyozlarini mustaqil ravishda tanlash. Bunda Foydalanuvchi Xizmatlar va Imtiyozlar alohida hujjatlar bilan tartibga solinishi mumkinligini tushunadi.
- 6.4.2.** Ilovada nazarda tutilgan tegishli rad etish funksiyasidan foydalanib, Obunani to'xtatish va undan voz kechish; Bank tomonidan Obunaning ishlashi va foydalanish masalalari bo'yicha maslahat olish.

7. Tomonlarning javobgarligi

- 7.1.** Tomonlar ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 7.2.** Foydalanuvchi ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida yuzaga keladigan har qanday zarar yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgar bo'ladi.
- 7.3.** Foydalanuvchi himoyalanmagan ulanishlardan foydalanadigan yoki zararli dasturlar va ilovalar tahdidi ostida bo'lgan qurilmada shaxsiy ma'lumotlarini kiritganda ularning xavfsizligi uchun to'liq javobgar bo'ladi.
- 7.4.** Bank Shartnoma shartlarining lozim darajada bajarilmaganligi uchun, agar bunday bajarmaslik Foydalanuvchi tomonidan Shartnoma shartlarining bajarilmaganligi oqibati bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.
- 7.5.** Bank Foydalanuvchining ushbu Oferta (Shartnoma) shartlari bilan tanishib chiqmaganligi va (yoki) o'z vaqtida tanishib chiqmaganligi sababli yuzaga kelgan har qanday zarar uchun javobgar bo'lmaydi.
- 7.6.** Bank Shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bunday bajarmaslik Bank nazoratidan tashqaridagi sabablarga ko'ra yuzaga kelgan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.
- 7.7.** Tomonlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan, Tomon oldindan ko'ra olmagan yoki oqilona choralar bilan oldini ololmagan favqulodda hodisalar (fors-major) natijasida yuzaga kelgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlari oqibati bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadilar.

8. Shartnomani bekor qilish

- 8.1.** Foydalanuvchi istalgan vaqtda Ilovadagi Obunani bekor qilish orqali Shartnomani bajarishdan voz kechish huquqiga ega.
- 8.2.** Obuna bekor qilingan vaqtdan boshlab Shartnoma bekor qilingan hisoblanadi. Bunda, Ilovada ro'yxatdan o'tkazilgan Foydalanuvchi kartasidan joriy Obuna davri uchun to'lov sifatida yechib olingan mablag' qaytarilmaydi.
- 8.3.** Obuna to'xtatilgan kundan boshlab 27 kun ichida Obuna to'lovini yechib olish uchun Foydalanuvchi kartasida yetarli mablag' bo'lmasa, Shartnoma avtomat ravishda bekor qilingan hisoblanadi.
- 8.4.** Agar Foydalanuvchi Obuna ulangan Ilovadagi o'z akkauntini o'chirib tashlasa, Obuna avtomat ravishda o'chiriladi va Shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

9. Kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish tartibi

- 9.1.** Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan har qanday nizo Foydalanuvchining murojaatiga asosan tinch yo‘l bilan yoki da’vo tartibida hal qilinishi lozim. Murojaatni ko‘rib chiqish muddati va tartibi hamda uning mazmuniga qo‘yiladigan talablar www.tcbank.uz veb-saytida joylashtirilgan Bankda murojaatlarni ko‘rib chiqish qoidalari bilan belgilanadi.
- 9.2.** Agar yuzaga kelgan nizo da’vo tartibida hal etilmasa, u O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda javobgar joylashgan joydagi quyi sudga ko‘rib chiqilishi kerak.
- 9.3.** Texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari Foydalanuvchilarga faqat so‘rovlarni qabul qilish orqali taqdim etiladi. Foydalanuvchilarning so‘rovlari Bankning qo‘llab-quvvatlash xizmati tomonidan contact@tcbank.uz elektron pochta manzili yoki Bankning www.tcbank.uz rasmiy veb-saytida yoki Ilovada ko‘rsatilgan telefon raqami orqali qabul qilinadi.

10. O‘zgartirish kiritish tartibi

- 10.1.** Bank ushbu Ofertaga bir tomonlama tartibda o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega bo‘lib, o‘zgartirilgan Oferta tahririni www.tcbank.uz veb-saytida va/yoki Ilovada e‘lon qilish orqali amalga oshiradi.
- 10.2.** Ofertaning o‘zgartirilgan tahriri www.tcbank.uz veb-saytida va/yoki Ilovada joylashtirilganidan so‘ng 10 kalendar kun o‘tgach, biroq Ofertaning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan sanadan oldin bo‘lmagan muddatda kuchga kiradi. Agar ushbu Ofertaning ayrim shartlari Siyosatlar yoki Bankning boshqa ichki hujjatlari bilan ham tartibga solinadigan bo‘lsa, bu shartlar tegishli hujjatlarda belgilangan tartib va muddatlarda o‘zgartiriladi.
- 10.3.** Agar Ofertaning o‘zgartirilgan tahriri kuchga kirgunga qadar Foydalanuvchi ushbu Shartnomaning 8-bo‘limida nazarda tutilgan harakatni bajarmasa (ya’ni, Shartnomani bekor qilmasa), o‘zgartirishlar Foydalanuvchi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.
- 10.4.** Foydalanuvchi Shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini Bankning oldindan yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga o‘tkazishga haqli emas.

11. Boshqa shartlar

- 11.1.** Shartnomada bevosita ko‘zda tutilmagan barcha hollarda, Tomonlar Bankning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlariga, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga hamda ishbilarmonlik an‘analariga amal qiladilar.
- 11.2.** Ushbu Ofertani qabul qilish orqali Foydalanuvchi Shartnomaning barcha shartlariga so‘zsiz roziligini tasdiqlaydi.

